



KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNI MUSTAQIL BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Boltaboyeva Barnoxon Xomidjonovna

Toshkent Farmatsevtika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasii
katta o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.37547/ejlfas-v03-i03-p1-05>

ARTICLE INFO

Received: 24th February 2023

Accepted: 03rd March 2023

Online: 04th March 2023

KEY WORDS

Kredit - modul tizimi, o'quv jarayoni, Ta'lim dasturi, mustaqil ta'lim.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Ta'lim jarayonida yangi tashkil etilgan Kredit - modul tizimi haqida, ushbu tizimning asosiy vazifalari haqida, hamda ushbu kredit modul tizimi orqali talabalarni mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish haqida so'z yuritiladi.

KIRISH.

Bilim va ilmning shakllanishi bevosita ta'lim tizimiga borib taqaladi. Ta'lim tizimi samaradorligini o'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil ta'limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta'minlab beradi. Demak, ilg'or kadrlarni tayyorlash, ularni mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni yetishtirish o'quv dargohlarida yo'lga qo'yilgan ta'lim berish jarayoni bilan chambarchas bog'liq.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 8-oktyabrida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda "respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim - muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" belgilab berildi.

Kredit-modul tizimi, bu - ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimni reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;



— ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ta'limning kredit-modul tizimida bakalavrlarning mustaqil faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirish yo'llari asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim muvaffaqiyatli bajarilganda talabalarning mustaqilliklarini tarbiyalab boriladi.

Talabalarga mustaqil ta'limni masala ko'rinishida taklif etish, aniq muammoli vaziyatlarda shartlarni izlash yoki ifoda etish jarayonida sub'ektlar tomonidan tashkil etuvchi faoliyatini go'yoki talabalar o'rniga o'qituvchi bajargandek bo'ladi. Mustaqil o'qishda shartlar oldindan ma'lum qilinmaydi. Agarda o'qituvchi tomonidan beriladigan ta'limiy mustaqil ishlarni bajarish jarayonida talaba yechim yo'lini topa olmasa, u holda aniq vaziyatga duch kelib ushbu mustaqil ishni yechimini izlashga imkon beruvchi holatga aylantira olmaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Mustaqil ta'lim ma'lum didaktik vazifalarga qat'iy amal qilishni taqozo etadi. Mustaqil ta'limning shartlari avvaldan tuzuvchi tomonidan belgilab qo'yilganda, talabadan o'zgartirish malakasini namoyish qilish talab etilmaydi. Mustaqil bilim olishda ko'proq shartlari ifoda etilmagan topshiriqlarni bajarishga to'g'ri keladi. Talaba uchun o'quv faoliyati doirasini to'g'ri aniqlay olish va uning mustaqil faoliyatining samarali usullarini ishlab chiqish juda muhimdir. Talabaning mustaqil ishi nafaqat ma'lumotga ega bo'lishi, balki talabaning ijodiy salohiyatini rivojlantirishi kerak. Vaqt o'tishi bilan mustaqil ish qobiliyatlari odat bo'lib qoladi va talaba faoliyatining tabiiy qismiga aylanadi. Talaba uchun o'quv faoliyati doirasini to'g'ri aniqlay olish va uning mustaqil faoliyatining samarali usullarini ishlab chiqish juda muhimdir. Talabaning mustaqil ishi nafaqat ma'lumotga ega bo'lishi, balki talabaning ijodiy salohiyatini rivojlantirishi kerak. Vaqt o'tishi bilan mustaqil ish qobiliyatlari odat bo'lib qoladi va talaba faoliyatining tabiiy qismiga aylanadi. Kredit-modul tizimida mustaqil ishni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun ma'lum ob'ektiv va sub'ektiv sharoitlar talab qilinadi.

Ob'ektiv shartlar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: Birinchidan, zarur sinf fondining, shu jumladan ixtisoslashtirilgan sinf xonalari va o'qish zallarining mavjudligini va sinflarning multimedia uskunalari bilan yuqori darajada jihozlanishini nazarda tutadigan moddiy-texnik ta'minot. Ikkinchidan, o'quv-uslubiy va axborot ta'minoti, shu jumladan kerakli miqdordagi o'quv adabiyotlari, o'quv-uslubiy majmualar, elektron ommaviy axborot vositalaridagi o'quv materiallari, topshiriqlarning katta variantlari to'plami va ularni individual mustaqil ish rejimida bajarish bo'yicha ko'rsatmalar mavjudligi hamda davriy nashrlar.

Masalan, nazariy fikrlash yuqori darajadagi mavhum tushunchalar bilan ishlash bilan bog'liq bo'lgan innovatsion fikrlashning bir qismi hisoblanadi.

Kishi yuksak fazilatlar va qadriyatlarni egallamasdan, o'zida insonga muhabbat tuyg'usini shakllantirmasdan, go'zal xulqli, odobli, insonparvar bo'lmasdan turib etuk shaxs, komil inson bo'lib etishuvi qiyin.

XULOSA.

Mustaqil ta'lim asosida sub'ekt shartlarni o'zgartirishi qonunlari bilan tanishadi, aniq bir muammoni tahlil qilish va mustaqil ishini bajarishda mavjud ko'nikma va malakalardan foydalanadi. Mustaqil ta'lim yordamida tushunchalarni shakllantirish, sub'ektlarga mustaqil ravishda muammo belgilarini aniqlash, muhim ma'lumotlarni ikkinchi darajali



ma'lumotlardan ajratib olish va qo'shimchalarni izlab topish imkonini beradi. Mustaqil ishlashni ta'minlashga imkon beradigan mustaqil ta'lim - tushuncha, sabab va qadriyatli yo'nalishlarni o'zlashtirishi past darajali va qoniqarsiz bo'lgan talabalar uchun qulay sharoitni yaratishni ko'zda tutadi. Shu yo'llar orqali talabalarda mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirib boriladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyevning 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // kun.uz. 2018.12.28.
2. O'rinov V. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: Asosiy tushunchalar va qoidalar". El-yurt umidi jamg'armasi va Respublika oliy ta'lim Kengashi bilan hamkorlikda tayyorlangan. Qo'llanma. 10 avgust 2020 yil.
3. Shekudova S.S. "Uchebno-metodicheskiy kompleks po dissipline komponenta uchrejdaniya visshego obrazovaniya «Organizatsiya i samostoyatelnoy raboti studentov» modulya raboti studentov», modulya «vvedeniye v spetsialnost i uchebnuyu deyatelnost studenta». Gomel -2018.
4. Izimovna U.R. "Kreditno-modulnaya sistema organizatsii obucheniya kak faktor formirovaniya umeniy samoobrazovatelnoy deyatelnosti studenta". Avtoreferat - Orenburg-2010
5. Ilmiy tadqiqot jurnali №5 2022 yil 45 bet. web:<http://www.tadqiqot.uz/>: email:info@tadqiqot.uz
6. ilmiy tadqiqot jurnali №4 2021 yil 78-bet web:<http://www.tadqiqot.uz/>: email:info@tadqiqot.uz
7. Abdurakhmonov Khasan Ibroximovich. (2022). INNOVATIVE THINKING AND ITS FORMS AND TYPES OF MANIFESTATIONS. European Scholar Journal, 3(5), 38-41. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/article/view/2199>
8. Мадумаров, Т., Хаидаров, Р., & Фуломжонов, О. (2023). АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИДА ГУМАНИЗМ ҲОЯЛАРИ. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 3(2), 116-118.